



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



Ta'llimni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik
markazi



PEDAGOGIK MAHORAT VA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI BO'YICHA USLUBIY QO'LLANMA



UO'K 37.091.12:005.962.13(075)

KBK 74.6ya73

P 29

Tuzuvchilar:

Carlise Wynne, Albina Hartner, Sayyora Israilova,
Ksenya Churkina, Anna Kuznetsova, Shaxriyor Muxamadjanov

Tarjimon:

Begliyev Dilshod

Illustrator:

Shahzod Turdiboyev

Tahrirchi:

Shahzodbek Kurbaniyazov, Zuxriddin Kudratov

Taqrizchilar:

Muqaddas Baymuratova - Toshkent shahar Sergeli tumani 7-umumta'lim maktabi fizika fani o'qituvchisi.

Saidaxon Akbarova - Toshkent shahar Yunusobod tumani 220-umumta'lim maktabi kimyo fani o'qituvchisi.

Yodgarova Soxibjamol - Toshkent shahar Yunusobod tumani 239-sonli ayrim fanlari chuqr o'qitiladigan maktabi biologiya fani o'qituvchisi.

Gulchexra Paxramova - Toshkent shahar Sergeli tumani 300-maktab biologiya fani o'qituvchisi.

Ta'lif texnologiyalari: O'zbekiston Respublikasi o'rta umumta'lim maktab o'qituvchilari uchun o'quv qo'llanma

Toshkent sh.: Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi.
Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi, 2023. - 88 bet.

Baktria press - nashriyoti.

ISBN 978-9943-9575-6-5

Hurmatli ustoz!

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallahsha o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

O'quv jarayonini innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish, so'nggi texnikalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, o'quvchilarni yangilik yaratish ruhida tarbiyalashga turtki bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-sonli farmoni va 2023 yil 20 apreldagi "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-128-sonli qaroriga asosan fizika, kimyo, biologiya fanlarini chuqr o'rganishga mo'ljallangan didaktik materiallar va multimedia mahsulotlarining yangi avlodlari tayyorlash maqsadida mazkur qo'llanma yaratildi.

Ushbu qo'llanmada PhET, Nearpod va Kahoot o'quv platformalari yordamida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Unda PhET simulyatorlari, Nearpod va Kahoot platformalaridan foydalanishda shaxsiy akkaunt yaratishdan boshlab uning barcha funksiyalari haqida bat afsil ma'lumotlar berilgan. Bu ilovalar yordamida interfaol topshiriqlar, dars rejali, mustaqil vazifalar, testlar, viktorinalar, dars taqdimotlari, tanlangan mavzular bo'yicha video kontentlarini, tarqatma materiallar yaratish yoki tayyor o'quv resurslaridan dars jarayonida foydalanish mumkin. Har bir interfaol tarzda yaratilgan topshiriqlar o'quvchilarga tadqiqotlarda ishtiroy etish, o'z fikrlarini ayta olish va uni boshqalar bilan muhokama qilish, muammoli savollarga javob topish imkonini beradi va ularning tadqiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Dars yakunida ularning tushunchalarini baholovchi amaliy topshiriq va testlar o'qituvchiga darsga qo'yilgan maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Darsda o'quvchilarning amaliy faoliyatini tashkil etish har bir o'qituvchi uchun juda mas'uliyatlari va qiyin ishdir. O'qituvchi o'quvchilarni mustaqil ravishda bilimlarni o'zlashtirishga, dunyoqarashini shakllantirishga va eng muhimmi, olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llashga o'rgatishi kerak. Umid qilamizki, ushbu uslubiy qo'llanma o'qituvchilarga amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishda yordam beradi.

Mundarija

1. Kirish	8
2. Tarqatma materiallarni tayyorlash bo'yicha tavsiyalar	16

Amaliy mashg'ulotlar (Kimyo):

1. Atom tuzilishini o'rganish	21
2. Kimyoviy reaksiya tenglamalari	24
3. Eritma pHni aniqlash	26
4. Molekulaning tuzilishi	29
5. Moddaning agregat holatlari	32
6. Rutherford tajribasi	34

Amaliy mashg'ulotlar (Biologiya):

1. Tabiiy tanlanish laboratoriyalari uchun PhET simulyatori	36
2. Genlarning namoyon bo'lishi	39
3. Neyron	42
4. Issiqxona effekti	45

Amaliy mashg'ulotlar (Fizika):

1. Kuch va harakat	48
2. Rangni idrok etish	51
3. Zichlik	55
4. Zanjarning bir qismi uchun Om qonuni	58
5. Diffuziya	60

Nearpod:

1. Nearpod interfaol o'quv platformasi	64
2. Bloklar bilan ishlash	72

Kahoot:

1. Kahoot	80
2. Interfaol o'quv materiallarini yaratish	83
3. O'quvchilarning yutuqlarini baholash	86
4. Test o'tkazish	88

PhET Inrterfaol simulyatorlari

Pedagogik mahorat va ta'lim
texnologiyalari bo'yicha uslubiy qo'llanma



Mavzu: PhET

Maqsad:

PhET – bu fizika, kimyo, matematika, geografiya va biologiya fanlari bo'yicha darslar va simulyatorlarning onlayn manbayi. Platformada barcha sinflar uchun kontent mavjud. Bu, ayniqsa, fizika, kimyo hamda biologiya fanlari darslarida tajribalarni o'tkazishda zamonaviy laboratoriyalarga ega bo'lмаган mакtablar uchun foydali manbadir. Hozirgi vaqtida o'qituvchilar foydalanishlari uchun 115 ta tilga tarjima qilingan 169 ta faol simulyatorlar mavjud. Ushbu simulyatorlar Kolorado Boulder universiteti tomonidan ishlab chiqilgan.

Mavzu yo'nalishlari:

Fizika, Kimyo, Matematika, Geografiya, Biologiya.

Akkaunt (obuna) kerakmi?

Ha

Qo'llash:

- ilmiy asoslangan kontent;
- qimmat laboratoriya tajribalariga muqobil variant;
- o'quv dasturiga qo'shimcha material.

Barcha qaydnomalar bepul va platformadan foydalanish juda oson. Filrlar yordamida kerakli simulyatorlarni osongina topishingiz mumkin. Buning uchun siz sinf va mavzuni tanlashingiz kerak.

Bepul akkaunt yaratish:

1. phet.colorado.edu saytiga o'ting.

Agar sizga ingliz tilida ishlash noqulay bo'lsa, sahifani o'zingiz uchun qulay bo'lgan tilga tarjima qilishingiz mumkin. Buning uchun sichqonchaning o'ng tugmacha bosing va "rus/o'zbek tiliga tarjima qilish" funksiyasini tanlang. Quyidagi ekran ochiladi.




Ro'yxatdan uchta nuqtani bosing va tilni tanlang. Endi ko'rib chiqilayotgan sayt siz tanlagan tilda ishlaydi.



PhET veb sayti





Fan va matematika uch interaktiv simulyatsiya

SIMLARIMIZNI O'RGANING

1,1 milliarddan ortiq simulyatsiyalar yetilgan

Pashto
Persian
Polish
Portuguese
Punjabi
Quechua
Romanian
Russian
Samoan
Scottish Gaelic
Serbian
Shona
Sindhi
Sinhala
Slovak
Slovenian
Somali
Southern Sotho
Spanish
Sundanese
Swahili
Swedish
Tajik
Tamil
Tatar
Telugu
Thai
Tigrinya
Turkish
Turkmen
Ukrainian
Urdu
Uyghur
Uzbek
Vietnamese

2. So'ngra veb-saytda ro'yxatdan o'tish uchun sahifaning yuqori o'ng burchagidagi "**odamcha**"  belgisini bosing.

Tizimga kirish

E-pochta manzili

Parol

TIZIMGA KIRISH

Hisob kerakmi? **Ro'yxatdan o'tish** Tasdiqlashni qayta yuborish

C Log in with Clever

PhET hisobingizni yarating

Hisob turi

Aloqa ma'lumotlari

Qoshimcha ma'lumotlar

Eslatma: Talabalar ro'yxatdan o'tishlari shart emas. Talaba hisoblari qo'llab-quvvatlanmaydi. Ro'yxatdan o'tmasdan [PhET simulyatsiyasi bilan o'ynang](#).

men...

O'qituvchi

Tayyorgarlik o'qituvchisi

O'qituvchi o'qituvchi / murabbai

Tadqiqotchi

Tarjimon

Ota-onা

Maktab ma'muriyat

O'quv dasturi bo'yicha mutaxassis

IT/Ommaviy axborot vositalari bo'yicha mutaxassis

Ta'lim mahsuloti provayderi

Boshqa

Men 13 yosh yoki undan katta ekanligimni tasdiqlayman.

KEYINGISI

Siz haqingizda bizga xabar bering

Hisob turi Aloqa ma'lumotlari Qo'shimcha ma'lumotlar

Asosiy elektron pochta manzili	Ikkilamchi elektron pochta manzili (ixtiyoriy)
<input type="text"/>	<input type="text"/>
Asosiy manzilni qayta kiriting	
<input type="text"/>	
Parol	Parolni tasdiqlang
<input type="text"/>	<input type="text"/>
Ism	Familiya
<input type="text"/>	<input type="text"/>
Mamlakat	
<input type="text" value="-- Variantni tanlang --"/>	
Shahar	
<input type="text"/>	
Twitter tutqichi (ixtiyoriy)	
@ <input type="text"/>	
Elektron pochta obunalari	
<input checked="" type="checkbox"/> PhET elektron pochta xabarlarini oling	
Tanlangan elektron pochta tili	
<input type="text" value="Ingliz"/>	

6 → KEYINGISI

Sahifaning barcha bo'limlari to'ldirilganligiga ishonch hosil qiling va "Keyingisi" tugmasini bosing.

Sinfingiz haqida bizga xabar bering

Hisob turi Aloqa ma'lumotlari Qo'shimcha ma'lumotlar

Maktab	<input type="text" value="110"/> Maktabingizni topa olmayapsizmi?	
<input type="checkbox"/>		
Mavzu(lar)	Baho(lar)	O'qituvchilik tajribasi
<input checked="" type="checkbox"/> Umumiyl fanlar	<input checked="" type="checkbox"/> Boshlang'ich (K-5)	<input type="text" value="20"/>
<input checked="" type="checkbox"/> Astronomiya	<input checked="" type="checkbox"/> O'rta (6-8)	
<input checked="" type="checkbox"/> Yer haqidagi fan	<input checked="" type="checkbox"/> Yuqori (9-12)	
<input checked="" type="checkbox"/> Biologiya	<input type="checkbox"/> Universitet	
<input checked="" type="checkbox"/> Fizika	<input type="checkbox"/> Boshqa	
<input checked="" type="checkbox"/> Kimyo		
<input checked="" type="checkbox"/> Matematika		
<input type="checkbox"/> Boshqa		

Sinfda men ... (tegishli barcha narsani tanlang)

Umumiyl ta'lim o'qituvchisi
 Maxsus ta'lim o'qituvchisi
 Paraprofessional o'qituvchi
 O'rinnbosar o'qituvchi
 Talaba o'qituvchi
 Boshqa

PhET tajribasi

Yangi foydalanuvchi
 Vaqtiga vaqt bilan foydalanuvchi (men bir nechta simlardan foydalanganman)
 Tajribalni foydalanuvchi (Men muntazam ravishda simlardan foydalamanan)
 Kuchli foydalanuvchi (men hammaga PhET haqida aytib beraman)

7 → HOZIR RO'YXATDAN O'TING

Kerakli fanni tanlang so'ngra "Hozir ro'yxatdan o'ting" tugmasini bosing.

3. Siz ro'yxatdan o'tish ma'lumotlarida ko'rsatilgan manzilga elektron pochta xabarini olasiz. Ta'lim resurslari va simulyatorlarga kirish uchun elektron pochta manzilini tasdiqlash lozim.

4. Endi platformaning turli funksiyalarini o'rganish va ulardan foydalanish mumkin.

Ta'lif resurslari:

1. O'quv tavsiyalari, resurslari va seminarlari ro'yxatini ochish uchun kompyuter kurstorini sahifaning yuqori qismidagi "**O'qitish**" yorlig'i ustiga olib boring. Simulyatorlar bilan ishni boshlashdan oldin "**PhETdan foydalanish bo'yicha maslahatlar**" sahifasiga o'tiladi va YouTube-da PhET-dan foydalanish bo'yicha qisqacha video qo'llanmani tomosha qilish tavsiya etiladi.

PhETga qisqacha kirish:

PhET simulyatsiyalarining umumiy ko'rinishi



PhET bilan o'qitish bo'yicha maslahatlar va manbalar

- [PhET dan foydalanishni rejalashtirish](#)
- [Ma'ruzada PhET-dan foydalanish: umumiy ko'rinish](#)
- [Interaktiv ma'ruba ko'rgazmalar](#)
- [Clickers bilan PhET-dan foydalanish](#)
- [K12 sinfi uchun PhET faoliyatini loyihalash](#)
- [K12 sinfi uchun PhET faoliyatini osonlashtirish](#)
- [Video seriasi: K12 sinfida PhET faoliyatini osonlashtirish](#)
- [PhET bilan masofaviy ta'lim](#)
- [PhET virtual ustaxonalar](#)

Ushbu yorliq (4) yordamida simulyator va dars ishlasmalarni boshqa o'qituvchilar bilan baham ko'rish mumkin.

Muayyan simulyatsiyalardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar:

- Har bir simulyatsiyada foydalanish uchun faoliyatimizni ko'rib chiqing
- Shaxsiy simulyatsiya sahifalarida maxsus simulyatsiyalar bilan foydalanish uchun o'qituvchi maslahatlarini toping (agar mavjud bo'ssa)

Simulyatsiyalar/simulyatorlar

1. Bosh sahifada kerakli fanni tanlang. Masalan, "Fizika".



1,1 milliarddan ortiq simulyatsiyalar yetkazib berildi

FIZIKA KIMYO MATEMATIKA YER HAQIDAGI FAN BIOLOGIYA

2. Ro'yxatning chap tomonidan qidiruvni aniq mavzulariga qisqartirish mumkin. Ushbu bosqichda, ro'yxatdagi tegishli katakchalarni belgilab, qiziqtirgan mavzularni tanlanadi. Masalan, "Ish, energiya va quvvat" mavzusini tanlang. Endi ekranda faqat o'sha mavzuga tegishli simulyatorlar qoladi. Endi kerakli simulyatorni bosing.

Ko'rib chiqish Filtr

Saralash : Eng yangi

MAVZU (2)

Fizika

Harakat

Ovoz va tolqinlar

Ish, energiya va quvvat

Issiqlik va Termo

Kvant hodisalarli

Nur va radiatsiya

Elektr, magnitlar va sxemalar

Kimyo

Umumiy kimyo

Kvant kimyosi

Matematika

Matematik tushunchalar

Matematik ilovalar

Yer haqidagi fan

Biologiya

DARAJA DARAJASI

MOSLIK (2)

KIRISH VA KIRITISH

MAHALLIY

Filtrlarni tozalash

23 Natijalar

Ish, energiya va quvvat X Yer haqidagi fan X HTML5 X HTML5 prototipi X

Mening quyosh tizimim

Issiqlix effekti

Zichlik

Energiya skeyt parki

Gravity Force Laboratoriysi: asoslar

To'lqinlar Kirish

Diffuziya

Gazlar Kirish

Gaz xususiyatlari

Qora tana spektri

Energiya shakkiali va o'zgarishlari

To'lqin shovqini

4. Sahifaning o'rtaida joylashgan ko'plab yorliqlarni ko'rishingiz mumkin. "Haqida" (About) yorlig'iда simulyator **mavzulari, ta'lim maqsadlari namunasi, inklyuziv xususiyatlar va tizim talablari** bilan bog'liq aniq mavzular keltirilgan.

Issiqxona effekti

Haqida O'quv resurslari Faoliyatlar Tarjimalar Kreditlar

Mavzular

- Issiqxona gazları va bulutlarning quyosh nuriqa, infragizil nurlanishiga va sirt haroratiga ta'sirini tafsiflang.
- Issiqxona gazları nimma uchun haroratga ta'sir qilishini tushuntiring.
- Quyosh nurlari va infragizil nurlanishing harakatlari solishtiring va taqqoslang.
- Radiatsion muvozanatni tasviflang va undan sirt harorati va issiqxona gazları kontsentratsiyasi ortasidagi bog'lilikni tushunrish uchun foydalaning.
- Issiqxona gazlarning ta'sirini infragizil yutuvchi qatlamlar tasiri bilan solishtiring.

Tal'lim maqsadlari namunasi

Biz simulyatsiyalarni har xil ehtiyojlarga ega va turli muhitdagi o'quvchilar uchun yanaada inkiyuuziv qilish uchun xususiyatlarni qoshmoqdamiz. [Inkiyuuziv xususiyatlarga ega barcha simlarni](#) toping.

Inkiyuuziv xususiyatlar

- Muqqobil kiritish
- Ovoz va sonifikatsiya
- Panorama va mashtablash
- Interaktiv diqqatga sazovor joylar

Biz simulyatsiyalarni har xil ehtiyojlarga ega va turli muhitdagi o'quvchilar uchun yanaada inkiyuuziv qilish uchun xususiyatlarni qoshmoqdamiz. [Inkiyuuziv xususiyatlarga ega barcha simlarni](#) toping.

Tizim talabari

HTML5 simulyatsiyalari iPad, Chromebook, kompyuter, Mac va Linux tizimlarda ishlashi mumkin.
To'liq [HTML5 tizim talablarini ko'ring](#).
Inkiyuuziv xususiyatlar faqat HTML5 simlariga qoshildi va bazi funksiyalarda platforma cheklolari mayud. Tizim talabari va sinovdan otgan platformalar haqida batafsil malumot olish uchun [Accessible Sims](#) ga qarang.

1.1.5 versiyasi

5. "O'quv resurslari" yorlig'ini bosish orqali o'qituvchilar uchun simulyatorlardan foydalanish bo'yicha batafsil qo'llanma sahifasiga o'tasiz. Shuningdek, ularning PDF nusxasini yuklab olish yoki kompyuterga saqlash va dars bilan bevosita bog'liq bo'lgan ta'lim standartlar ro'yxatini ham ko'rish mumkin.

Haqida O'quv resurslari Faoliyatlar Tarjimalar Kreditlar

O'qituvchich maslahatlar

greenhouse-effect-html5-guide

Waves Screen
Adjust the greenhouse gas concentration and observe the effects on the infrared waves and surface temperature. Measure the energy balance at the top of the atmosphere.

MEASURE the energy entering and exiting the atmosphere

OBSERVE temperature qualitatively

ADJUST greenhouse gas concentration

EXPLORE atmosphere at different time periods

ADD cloud to model albedo

6. "Faoliyatlar" yorlig'i (bu yerda Google tarjima), "Mashqlar" ma'nosini anglatadi va bu yorliq boshqa o'qituvchilar tomonidan tanlangan mavzuga yaratilgan barcha resurslarni ko'rish va yuklash mumkin.

Issiqxona effekti

Faoliyatlar

[Haqida](#) [O'quv resurslari](#) [Faoliyatlar](#) [Tarjimalar](#) [Kreditlar](#)

O'qituvchi tomonidan taqdim etilgan tadbirlar

✓ Faoliyat bizning so'rovimizga asoslangan kor'satmalarimizga mos kelishi bilidrasi.

Filtrlar	Daraja : Hammasi	Turi : Hammasi	Mavzu : Hammasi	Til : Hammasi		
SARLAVHA ♦	SO'ROV ♦	MUALLIF ♦	DARAJA	TURI	MAVZU	TIL
Ortacha global haroratga ta'sir qiluvchi omillar	✓	Steysi Nguyen	Orta maktab Bakalavr - Kirish	Masofaviy talim Laboratoriya	Yer haqidagi fan	ingliz
Issiqxona gazlari laboratoriyasi	✓	Logan Utli	Orta maktab Orta maktab	Laboratoriya Muhokama uchun maslahatlar Boshqariladigan faoliyat	Yer haqidagi fan	ingliz
Bu o'zgarish emas ... bu inqiroz	✓	Xesus Eduardo Villamizar Rinkon	Orta maktab Orta maktab Bakalavr - Kirish	Masofaviy talim Laboratoriya Uy vazifasi Kop tanlovlvi kontseptsiya savollar Muhokama uchun maslahatlar Boshqariladigan faoliyat	Fizika Kimyo Yer haqidagi fan Biologiya	ingliz
Ora tana spektrini simulyatsiya qilish uchun uy vazifasi	PhET	Keti Perkins, Karl Viman	Bakalavr - Kirish Bakalavr - Ilgor	Uy vazifasi	Fizika	ingliz
Issiqxona simulyatsiyasi darsi	PhET	Keti Perkins, Karl Viman	Orta maktab Bakalavr - Kirish	Namoyish	Fizika	ingliz
Issiqxona gazlarini qidirish	Rita Grover-Sidhu	Orta maktab	Laboratoriya Boshqariladigan faoliyat	Kimyo Yer haqidagi fan	ingliz	
Issiqxona effektiga kirish	Rachael Barrett	K-5 Orta maktab	Masofaviy talim	Yer haqidagi fan	ingliz	
No es un cambio... es una inqiroz	✓	Xesus Eduardo Villamizar Rinkon	Orta maktab Orta maktab Bakalavr - Kirish	Masofaviy talim Laboratoriya Uy vazifasi Kop tanlovlvi kontseptsiya savollar Muhokama uchun maslahatlar Boshqariladigan faoliyat	Fizika Kimyo Yer haqidagi fan Biologiya	spaniol

[FAOLIYATNI ULAISHISH](#)

7. "Tarjimalar" (Translations) sahifasida taqdim etilgan fayllarning tarjimalari (ba'zi mavzularning), shu jumladan, o'zbek, rus, qozoq, tojik va turkman tillarida keltirilgan.

Issiqxona effekti

Tarjimalar

[Haqida](#) [O'quv resurslari](#) [Faoliyatlar](#) [Tarjimalar](#) [Kreditlar](#)

TIL	SIMULYATSIIYA	O'QITUVCHI MASLAHATTLARI
Afan Oromo	Bu'a Giriin Haawusii	
Alban shqipe	Effekti Serre	
Amhar	የክስ አድር ቴምር	
Arabcha al'rbyt	ahri' albyt alzajjy	
Arab (Marokash) al'rbyt (almghrb)	aahtbas alhrary	
Arab (Saudiya Arabiston) al'rbyt (als'wdyt)	ahri' albyt alzajjy	
ozarbayjon	Istixana effekti	
bask	Berotegi-effekta	
bengal	গ্রিন হাউজের প্রভাব	
bosniyalik	Efekat staklene baste	
Bolgar tili	Parnikov effekt	
Kataloniya katalasi	Efecte hivernacle	

8. Simulyatsiyani ishga tushirish uchun ekranning markazida joylashgan video ustiga bosing.

The screenshot shows the PhET Interactive Simulations website. At the top left is the PhET logo and the text "INTERACTIVE SIMULATIONS" and "University of Colorado Boulder". At the top right are links for "SIMULYATSİYALAR", "O'QITISH", "TADQIQOT", "TASHABBUSLAR", "XAYRIYA QILING" (highlighted in red), a search icon, and a user icon. Below the header is a large image of a greenhouse with red wavy lines representing infrared radiation. Overlaid on the image is a circular play button with a black arrow pointing right. To the left of the play button is the text "Issiqxona effekti". Below the play button are several small icons: a download arrow, a double arrow, a square with a minus sign, a Facebook icon, and a Twitter icon. At the bottom of the page are navigation links: "Haqida" (underlined), "O'quv resurslari", "Faoliyatlar", "Tarjimalar", and "Kreditlar".

9. Videoni bosing va tanlangan amallarni laboratoriya mashg'ulotlarida bajaring. Shuningdek, o'quvchilar simulyatorda ishlashlari uchun tanlangan mashg'ulot ko'rsatmasini chop etish mumkin.

Tarqatma materiallarni tayyorlash bo'yicha tavsiyalar



Qisqacha sharh: PhET simulyatorlaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida, darsda foydalanish uchun tarqatma materiallar ishlab chiqilgan, ular foydalanish bo'yicha aniq, izchil ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Bu esa o'qituvchilarga dars maqsadlariga erishishlarida yordam beradi.

Tarqatma materiallari shunday yaratilgan-ki, u o'quvchilarga guruhda ishlash, berilgan savol va topshiriqlarni o'zaro muhokama qilish, shaxsiy kuzatuvlari hamda muammoli vazifalarning yechimini topish imkoniyatini beradi.

Simulyatorlardan foydalanib tashkillashtirilgan har bir dars o'quvchilarning tanqidiy va ilmiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

O'quv resurslari / tarqatma materiallarni ishlab chiqishga tayyorgarlik



PhET simulyatorini tanlang: O'quv reja va dars mavzusiga mos PhET stimulyatorini tanlang.



Dars mavzusi maqsadlarini aniqlang: Ishlab chiqilgan tarqatma materiallar mavzuni samarali o'rGANISHGA va aniq maqsadlarga e'tibor qaratishga yordam beradi. Bitta darsga ko'p maqsadlar qo'yish tavsiya etilmaydi, chunki topshiriqlarning ko'pligi dars davomida ularning barchasini bajarib bo'lmaydigan vaziyatga olib kelishi mumkin.



Dars maqsadlarini belgilash bo'yicha maslahatlar:

- tanlangan simulyatorning imkoniyatlarini hisobga olgan holda dars maqsadlarini belgilang;
- maqsadlar o'quvchilar uchun aniq va tushunarli bo'lishi lozim. Masalan, gravitatsiya kuchiga ta'sir qiluvchi o'zgaruvchilarni aniqlang.

Tarqatma materiallarni ishlab chiqish bo'yicha maslahatlar:

1. Tarqatma materiallar vazifani bajarishda qisqa yozma ko'rsatmaga ega bo'lish kerak.
2. Tarqatma material bir varaqdan oshmasligi kerak. Bu o'quvchilarga tadqiqotning barcha bosqichlarini bajarishga, shu jumladan, natijalarni o'z vaqtida muhokama qilishga imkon beradi.
3. Simulyatorning barcha funksiyalaridan foydalaning. Masalan, simulyatorda tadqiqot bilan bog'liq va dars maqsadlarini o'z ichiga olgan o'yin va topshiriqlar mavjud. Bu esa o'quvchilarni darsga jalb qilish va tadqiqot ishlariiga e'tiborlarini qaratishga yordam beradi.
4. Dars va stimulyatorda ishlash jarayonida olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish uchun tarqatma materiallarga jadvallar qo'shing.

Jadvallarni ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar:

- a. Bo'sh maydonli jadvallar yarating, yozma kuzatuvlar yoki harakatlarni kiritish uchun joy qoldirib, qisqa va tushunarli tushuntirishlardan foydalaning.

b. Ushbu vazifani o'qituvchi tomonidan tezkor tekshirishni ta'minlaydigan chekbokslar "**tasdiq belgilari uchun kvadratchalar**" jadvaliga kiriting.

d. Ochiq va yopiq savollarni o'z ichiga olgan jadvallarni yarating:

O'zgarish turi	O'zgaradimi?... Ha yoki Yo'q deb yozing
Elektron qo'shish	Element? Zaryad? Massa?

O'zgarish turi	Nima o'zgaradi?	Qanday o'zgaradi?
Elektron qo'shish	<input type="checkbox"/> Element	
	<input type="checkbox"/> Zaryad	
	<input type="checkbox"/> Massa	

Tajriba natijalarini taqqoslash uchun jadvallar:

Yashash joyi	Tanlov omili	Mutatsiya	Quyonlar moslashuvi	Quyonlar nobud bo'lди	Kuzatishlar
			<input type="checkbox"/> xa <input type="checkbox"/> yo'q	<input type="checkbox"/> xa <input type="checkbox"/> yo'q	

Faoliyat	Gravitatsiya kuchi
Yulduz va sayyorani bir-biriga yaqin joylashtiring	<input type="checkbox"/> ortadi <input type="checkbox"/> kamayadi
	<input type="checkbox"/> ortadi <input type="checkbox"/> kamayadi
	<input type="checkbox"/> ortadi <input type="checkbox"/> kamayadi

Sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash: ushbu tuzilma o'quvchilarni simulyator ichidagi faoliyatlarning muhim oqibatlarini aniqlashga undaydi:



O'tkazgichlar	Zaif o'tkazgichlar	Izolyatorlar
Simulyatorda qaysi material yaxshi elektr o'tkazuvchanligini qanday aniqlash mumkin?	Qanday qilib simulyatordagi elektr tokini zaif o'tkazuvchi deb ayta olasiz?	Qanday qilib simulyatordagi elektr tokini izolyator deb ayta olasiz?

Molekulalar tarkibini o'rganish bo'yicha simulyator yordamida darsda foydalanish uchun tarqatma materiallar

F.I. _____

sinf _____

1. Har bir rasm ostida ma'lum bir modda yoki moddalar guruhi uchun tegishli kimyoviy formulani ko'rsating:



2. Chizishga harakat qiling!

a. 2CO_2 ni chizing

b. $3\text{H}_2\text{O}$ ni chizing

c. 4N_2 ni chizing

d. 2NH_3 ni chizing

3. a. Suvning kimyoviy formulasini yozing: _____

b. Uning sifat tarkibini tavsiflab bering: _____

c. Uning miqdoriy tarkibini tavsiflab bering: _____

F.I. _____

sinf _____

Topshiriqlarni bajaring:

1. Siz simulyator yordamida hosil qilingan moddalar molekulalarining nomlarini yozing va ularning kimyoviy formulalarini keltiring:

Moddaning nomi:

Kimyoviy formula:

2. Moddalarni oddiy va murakkab deb tasniflang (1-topshiriqdagi):

Oddiy moddalar	Murakkab moddalar

3. Jadvalni to'ldiring:

Moddaning kimyoviy formulasi	2CO_2	O_2	4H_2	3NH_3
Molekulalar soni	2			
Barcha atomlarning soni	6			
Har bir atomning soni	2C va 4O			
Rasm				



4. Quyidagi formulalar nimani anglatadi? Yozing:

 4O - _____ 2O_2 - _____ $3\text{H}_2\text{O}$ - _____ 2H_2 - _____ 5H - _____

1. Atomlarni belgilash uchun kimyoviy belgilar ishlataladi. Quyidagilarga javob bering:

- a. Vodorod atomi qanday kimyoviy belgi bilan belgilanadi? _____
 b. Kislorod atomi qanday kimyoviy belgi bilan belgilanadi? _____
 d. Uglerod atomi qanday kimyoviy belgi bilan belgilanadi? _____

2. Har bir rasm ostida ma'lum bir modda yoki moddalar guruhi uchun tegishli kimyoviy formulani ko'rsating:



3. Chizishga harakat qiling!

a. CO_2 ni chizing	
b. $2\text{H}_2\text{O}$ ni chizing	
c. 3N_2 ni chizing	

1-amaliy mashg'ulot

Atom tuzilishini o'rGANISH

(Interfaol simulyatorlardan foydalanib dars tashkil etish)

Ushbu simulyator modeli atomlar va ionlarning tuzilishini o'rGANISHGA imkon beradi.



Ishning maqsadi:

- atom va ionlarning modellarini yaratishni o'rGANISH;
- kimyoviy elementlar atomlaridagi proton, elektron va neytronlar sonini aniqlashni o'rGANISH;
- kimyoviy element va uning Mendeleyev jadvalida joylashgan joyini aniqlash uchun elementar (subatom) zarralar haqida olingan ma'lumotlardan foydalanish;
- proton, neytroni yoki elektronni qo'shish yoki chiqarish elementni, uning zaryadini va massasini qanday o'zgartirishini aniqlash.



Kerakli jihozlar: Laboratoriya ishida "PhET Interactive Simulations" platformasining "Atom yarat" simulyatori modelidan foydalanadi.



Savollar:

1. Atomning yadro modeli nazariyasi qanday nomlanadi? Bor postulatlarini eslang. Ular qanday qarama-qarshiliklarni bartaraf etishdi?
2. Atomning tuzilishi qanday? Subatom zarralarni tavsiflab bering.
3. Berilgan kimyoviy elementning asosiy xususiyati nima?
4. Element belgisi yordamida atom yoki iondagi protonlar, neytronlar va elektronlar sonini qanday aniqlash mumkinligini tushuntiring.
5. Massa miqdori deb nimaga aytildi?
6. Ionlar qanday hosil bo'ladi? Misollar keltiring.
7. Elementning atom raqami qanday fizik ma'noga ega?

Ishni bajarish tartibi:

Atom va ion modellarini yaratish uchun **"Atom yaratish"** simulyatoridan foydalaning. Simulyator bilan ishlash uchun quyidagi bosqichlarni amalga oshiring.

1. Kerakli miqdordagi proton, neytron va elektronni tanlash orqali atom modelini yarating.



PhET Simulyator
QR-kodini skaner
qiling



Protonlar:
Neytronlar:
Elektronlar:

Bu yerda elementni aniqlash mumkin

Kimyoviy element

Umumiy zaryad

Model:
 Orbitalar
 Elektron bulut

Massa soni

Ko'rsatish

Atom modeli

Atom

${}^7\text{Li}$

Belgilanishi

O'yin

PhET:

2. Ekranda avtomatik ravishda hosil bo'lgan atomning xususiyatlarini o'rganing.

Protonlar: ●●
Neytronlar: ●●●
Elektronlar: ●●

Bu yerda atomdagи protonlar, neytronlar va elektronlar sonini kuzatish mumkin

Neutral Atom

Geliy

Model:
 Orbitalar
 Elektron bulut

Kimyoviy element

Umumiy zaryad

Atom/ionning umumiy zaryadini hisoblang

Massa soni

Bu yerda atom/ion massasini aniqlash mumkin

Ko'rsatish

Atom modeli

Atom

${}^7\text{Li}$

Belgilanishi

O'yin

PhET:

Bu yerda elektron bulut modelini yoki atom/ion orbitalini tanlash mumkin.

3. Elektronlar, protonlar va neytronlar sonini o'zgartiring. Bu tanlangan elementga qanday ta'sir qilishiga e'tibor bering.

4. "Belgilar" ekraniga o'ting.

Protonlar: ●
Neytronlar: ●
Elektronlar: ○

Atom modeli

Kimyoviy element

H	He																	
Li Be																		
Na Mg																		
K Ca Sc Ti V Cr Mn Fe Co Ni Cu Zn Ga Ge As Se Br Kr																		
Rb Sr Y Zr Nb Mo Tc Ru Rh Pd Ag Cd In Sn Sb Te I Xe																		
Cs Ba La Hf Ta W Re Os Ir Pt Au Hg Tl Pb Bi Po At Rn																		
Fr Ra Ac Rf Db Sg Bh Hs Mt Ds Rg Cn Nh Fl Mc Lv Ts Og																		

Belgilanishi

2 1+ H

Ko'satish

- Kimyoviy element
- Neytral/Ion
- Barqaror/Beqaror

Bu yerda atom belgilari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni o'rGANISH mumkin.

Bu yerda atom/ionning barqarorligini tekshirish mumkin.

Atom **Belgilanishi** **O'yin**

PHET

Ushbu sahifalarni bosish orqali turli xil ekranlarga o'tish mumkin (Belgi va O'yin)

5. O'yin ekraniga o'ting.

O'yinni tanlang!

Atom modeli **Belgilanishi** **O'yin**

PHET

Simulyatorda to'rtta o'yin taklif etiladi. Har bir o'yinda beshta savol mavjud. 1-o'yinda elementni subatom zarralar soniga qarab aniqlash, 2-o'yinda atom yoki ionning massa sonini yoki zaryadini hisoblash, 3-o'yinda atom modeli bo'yicha kimyoviy elementlarni aniqlash kerak, 4-o'yinda aralash vazifalar.

6. Bajarilgan ishning muhokamasi:

- Atomdagi protonlar, neytronlar va elektronlarning joylashishini tasvirlab bering;
- Atom/iondagи protonlar, neytronlar va elektronlar sonini aniqlash uchun atom belgisidan qanday foydalanishni tushuntiring;
- Atomning massa soni qanday hisoblanishini ko'rsatadigan matematik tenglamani yozing.

2-amaliy mashg'ulot

Kimyoviy reaksiya tenglamalari

(Dars interfaol simulyator yordamida tashkil etiladi)

Simulyatorning ushbu modeli kimyoviy reaksiyalarni tuzish va tenglamalar bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Simulyatordan 7-sinf darsligidagi "Kimyoviy tenglamalar tuzilishi" mavzusini o'rghanishda foydalanish tavsiya etiladi.



PhET Simulyator
QR-kodini skaner
qiling



Ishning maqsadi:

- kimyoviy reaksiyalarni tuzish va tenglashtirishni o'rghanish;
- kimyoviy reaksiyada har bir element atomlari soni saqlanib qolishini aniqlash;
- kimyoviy tenglamadagi koeffitsiyenti va eng past indekslari orasidagi farqni tavsiflash;
- kimyoviy formulalar va belgilar yordamida kimyoviy reaksiyaning shartli yozuvini asosi sifatida kimyoviy tenglama haqida bilimlarni shakllantirish.



Kerakli jihozlar: Laboratoriya ishida Kolorado universiteti tomonidan ishlab chiqilgan, CC-BY 4.0 litsenziyasiga ega "PhET Interactive Simulations" simulyatorining "Kimyoviy tenglamalarni muvozanatlash" modelidan foydalaniladi.



Savollar:


1. Qaysi qonunga asosan kimyoviy reaksiya tenglamalari tuziladi? Ushbu qonunning nazariy va amaliy ahamiyati nimada?
2. Kimyoviy tenglamalar deb nimaga aytildi?
3. Kimyoviy reaksiya tenglamalari qanday tuziladi?
4. Kimyoviy reaksiyalarda koeffitsiyent va past indeks orasidagi farq nimada?
5. Kimyoviy reaksiya tenglamalaridan qanday ma'lumot olish mumkin?

Ishni bajarish tartibi:


Taqdim etilgan kimyoviy reaksiyalarni muvozanatlash uchun "Kimyoviy tenglamalarni muvozanatlash" simulyatoridan foydalaning.

Simulyator bilan ishlash uchun quyidagi bosqichlarni amalga oshiring.

- a) Kimyoviy tenglamani tanlang.
- b) Reaksiyalarga koeffitsiyentlarni qo'ying. Agar siz vazifani to'g'ri bajarsangiz, bu simulyator ekranida aks etadi.
- c) Simulyator ekranida molekulalarning grafik formulasi ham aks etishiga e'tibor bering.



1. Reaksiya tenglamalari bilan ishlaganingizdan so'ng, o'yinlar ekraniga o'ting.



2. Ushbu o'yin 3 ta darajadan tashkil topgan bo'lib, qiyinlik darajasiga qarab farqlanadi. Har bir darajada 5 ta kimyoviy reaksiyalarni bajarish talab etiladi. Agar koeffisiyentlar noto'g'ri joylashtirilgan bo'lsa, ikkinchi imkoniyatga ruxsat beriladi.

6. Barcha darajalardan o'tkaningizdan so'ng, sizning natijangiz o'yin ekranida aks ettiriladi.

7. Bajarilgan ishlarni muhokama qiling.

a) Nima uchun kimyoviy reaksiya tenglamalarida butun son bo'lgan koeffisiyentlardan foydalilanildi?

b) Nima uchun tenglamalarda faqatgina koeffisiyentlar o'zgartirilib, indekslar o'zgarishsiz qoladi?

3-amaliy mashg'ulot

Eritma pHni aniqlash

(Dars interfaol simulyator yordamida tashkil etiladi)

Ushbu simulyator modeli kundalik hayotda uchraydigan turli xil eritmalar (muhiti) holatini o'rGANISHGA imkon beradi. Eritmalarni suv bilan suyultirilganda pH qiymatiga qanday ta'sir qilishini o'rGANISH.



PhET Simulyator
QR-kodini skaner
qiling



Ishning maqsadi:

- pH shkalasi yordamida eritmaning muhitini aniqlashni o'rGANISH.
- universal indikatorning rangini eritmaning pH qiymati bilan bog'lash.
- eritmaning suyultirilishi pH ga qanday ta'sir qilishini aniqlash.
- pH qiymatini oshirib borish tartibida suyuqliklar ro'yxatini tuzish.



Kerakli jihozlar: Laboratoriya ishida Kolorado universiteti tomonidan ishlab chiqilgan, CC-BY 4.0 litsenziyasiga ega "PhET Interactive Simulations" simulyatorining "Kimyoiy tenglamalarni muvozanatlash" modelidan foydalilanildi.



Hayotiy misollar:

1. Eritmaning kislotali yoki ishqoriy muhitiga ega deb hisoblagan ba'zi keng tarqalgan suyuqliklarni sanab o'ting. Masalan,
 - a. Apelsin sharbat qanday eritma muhitiga ega?
 - b. Nima uchun ko'p suyuqlik kislotali, ishqoriy yoki neytral eritma muhitiga ega, siz nima deb o'ylaysiz?
 - c. Apelsin sharbat kislotali yoki is hqoriy muhitga egami? Nima uchun siz shunday deb o'ylaysiz?
 - d. O'zingizning misollaringizni qo'shing.
2. Sizningcha, eritmaning muhit suyuqlik miqdoriga bog'liqmi? Fikringizni tushuntiring.
3. Sizningcha, suyuqliknii suv bilan suyultirish eritma muhitiga ta'sir qiladimi? Fikringizni tushuntiring.






Ishni bajarish tartibi:


Taqdim etilgan eritmalar muhitini o'rGANISH uchun "pH shkalasi asoslari" nomli simulyatordan foydalaning.

Simulyator bilan ishslash uchun quyidagi bosqichlarni amalga oshiring.

1. Suyuqliknii tanlab oling;
2. Zond yordamida pH ni o'lchang;
3. Tanlangan suyuqliknii suv bilan suyultirish va zond yordamida eritmaning pH qiymatini qayta o'lhash;
4. pH o'lchovi bilan tanlangan suyuqlik hajmini kamaytiring yoki oshiring.

Ushbu oynada siz muddani
o'zgartirishingiz mumkin





5. Bajarilgan ishlar va darsdan olingan natijalarni tavsiflang.

- Siz sanab o'tgan barcha suyuqliklar 1-band bo'yicha muhokamada, modellashtirishda ishtiroy etganmi? Agar ishtiroy etmagan bo'lsa, universal indikatordan foydalanib, ularning eritmalarini mustaqil ravishda o'rganing va pH ni aniqlang. Agar barcha tavsiya etilgan suyuqliklar interfaol simulyatorda mavjud bo'lsa, o'ylab ko'ring va keyin ularda qanday umumiylilik borligini tasvirlab bering (ularni nima birlashtiradi). Agar yo'q bo'lsa, universal indikatordan foydalanib, ularning eritmalarini mustaqil ravishda o'rganing, pH ni aniqlang.
 - Indikator rangini o'zgartirish orqali eritmaning kislotali, ishqoriy yoki neytral ekanligini aniqlashga qanday yordam berish mumkin? Ular haqida gipotezalariningizni sinab ko'ring (simulyator yordamida). Suyuqlik miqdori pH qiymatiga qanday ta'sir qiladi? Natijalariningizni aniq misollar bilan tasvirlab bering.
 - Suyultirilgan suyuqliklar pH ni oshiradimi, kamaytiradimi yoki o'zgarishsiz qoldiradimi degan gipotezalariningizni sinab ko'rish uchun tajriba o'tkazing (simulyator yordamida).
 - Barcha suyuqliklar o'zini bir xil tutadimi?
 - Suyuqlikning suyultirishi eritma muhitiga qanday ta'sir qilishini aniqlash uchun pH qiymatidan qanday foydalanish mumkinligini tushuntiring.
 - Bajarilgan ishlarni muhokama qiling:
- Bir nechta keng tarqalgan sharbatli ichimliklarni ko'rib chiqing: mevali sharbat 6,8; ko'k choy 9,0; sirka 3,5:
- Ushbu suyuqliklarni pH bo'yicha eng neytraldan eng kislotaligigacha bo'lgan tartibda joylashtiring;
 - Qaysi suyuqlik suv bilan suyultirilganda eritmaning pH qiymati yuqori bo'ladi?

4-amaliy mashg'ulot: Molekulaning tuzilishi

(Dars interfaol simulyator yordamida tashkil etiladi)

Ushbu simulyator modeli "Oddiy va murakkab moddalar", "Atomlar va molekulalar" kabi mavzularni o'rganishda kimyo darslarida olingan bilimlarni mustahkamlash, strukturaviy formulalarni tuzish ko'nikmalarini rivojlantirishga hamda turli moddalar molekulalaridagi atomlarning joylashuvini o'rganishda yordam beradi.



PhET Simulyator
QR-kodini skaner
qiling



Ishning maqsadi:

- Taqdim etilgan atomlardan moddalar molekulalarini yaratish;
- Oddiy va murakkab bo'lган molekulalarni yaratish;
- Atom va molekula o'tasidagi farqni o'rganish;
- Oddiy va murakkab moddalar o'tasidagi farqni o'rganish.



Kerakli jihozlar: Laboratoriya ishida Kolorado universiteti tomonidan ishlab chiqilgan, CC-BY 4.0 litsenziyasiga ega "PhET Interactive Simulations" simulyatorining "Kimyoviy tenglamalarni muvozanatlash" modelidan foydalilaniladi.



Savollar:


1. Atom nima? Molekula nima?
2. "Atom" va "molekula" tushunchalarining farqi nimada?
3. Qanday moddalar oddiy va qanday moddalar murakkab moddalar deyiladi? Misollar keltiring.
4. Molekulalar sifat tarkibi jihatidan nimani ko'rsatadi va miqdoriy jihatdan nimani ko'rsatadi?
5. Moddaning kimyoviy formulasidan qanday ma'lomtlarni olish mumkin? Misollar keltiring.

Ishni bajarish tartibi:


Oddiy va murakkab moddalardan molekulalar yaratish uchun "Molekulalarning tuzilishi" nomli simulyatordan foydalaning.

Simulyator bilan ishlash uchun quyidagi bosqichlarni amalga oshiring.

1. Birinchi yorliqni oching.
2. Siz tuzishingiz mumkin bo'lган molekulalarning ikkita ro'yxatini (1-to'plam va 2-to'plam) taqdim etadigan "Sizning Molekulalaringiz" oynasi bilan tanishib chiqing.
3. Kerakli atomlardan foydalanim, taklif qilingan ro'yxatdan molekulalarni tuzing va keyin ularni to'planning tegishli kataklariga o'tkazing.



4. Molekula tuzilganidan so'ng, (3D) tugmasidan foydalananing. Mazkur tugmani bosish orqali siz tuzilgan molekulalarning grafik formulalarini ko'rishingiz mumkin.



5. Agar siz taqdim qilingan molekulalarni to'g'ri tuzib, to'plamni to'ldirgan bo'lsangiz, bu simulyator ekranida aks etadi.

Siz to'plamningizni tamomladingiz!

Yangi to'plam

Uglerod Kislorod Azot

Sizning molekulalaringiz

- To'plam 1
 H_2O (suv)
3D
- O_2 (molekulyar kislород)
3D
- H_2 (molekulyar vodorod)
3D
- CO_2 (karbonat angidrid)
3D
- N_2 (molekulyar azot)
3D

Molekula tuzish Bir dona Bir nechta O'yin maydoni PhET

- Ikkinci yorliqga o'ting. Ushbu bo'limda molekulalarning aniq sonini (4 ta vodorod molekulasi, 2 ta ammiak molekulasi va boshqalar) qurish taklif etiladi va bu to'plamda ham aks ettirilgan bo'ladi.
- Kerakli miqdordagi molekulalarni yarating va to'plamni yakunlang.
- O'yin bo'limiga o'ting. Bu yerda taklif qilingan atomlardan oddiy va murakkab moddalarning istalgan molekulalrini qurishingiz va (3D) tugmasidan foydalanib, ularning grafik formulalarini o'rGANISHINGIZ mumkin.

acetic acid $\text{C}_2\text{H}_4\text{O}_2$

methylamine CH_3NH_2

Vodorod Cl Cl Xlor

Molekula tuzish Bir dona Bir nechta O'yin maydoni PhET

- Tarqatma material bilan ishlang va bajarilgan ishlarni muhokama qiling.

5-amaliy mashg'ulot:

Moddaning agregat holatlari

(Dars interfaol simulyator yordamida tashkil etiladi)

Ushbu simulyator modeli moddalarning bir agregat holatidan ikkinchisiga o'tish jarayonini o'rganish imkonini beradi (fazali o'tishlar). Simulyatordan 7-sinfda "Moddalarning agregat holatining o'zgarishi" mavzusini o'rganishda foydalanish taklif etiladi.



PhET Simulyator
QR-kodini skaner
qiling



Ishning maqsadi:

- moddalarning qattiq, suyuq va gazsimon holatlarining xarakteristikalarini va xossalarni o'rganish;
- zarralarning uch xil agregat holatidagi harakatini o'rganish.



Kerakli jihozlar:

Laboratoriya ishlarda PhET Interactive Simulations tomonidan "Moddalarning agregat holati" simulyator modeli qo'llaniladi.



Savollar:

1. Modda nima? Moddalarga misollar keltiring.
2. Moddalar qanday holatda bo'lishi mumkin? Misollar keltiring.
3. Moddaning zarralari qanday harakat qiladi?
4. Qattiq moddalar, suyuqliklar va gazlarning xususiyatlarini sanab o'ting.
5. Materianing alohida aggregat holatini nima belgilaydi?

Ishni bajarish tartibi:


Simulyator bilan ishlash uchun quyidagi bosqichlarni amalga oshiring.

1. Simulyator ekranida "agregat holatlari" yorlig'ini tanlang. Keyin taklif qilingan to'rtta moddadandan birini tanlang.

The screenshot shows the PhET simulation interface for studying matter states. On the left, there are controls for temperature (set at 113 K) and particle type selection (Neon, Argon, Kislorod, Suv). In the center, a cylindrical container shows orange dots representing molecules in different states. On the right, there are three main buttons: 'Modda tanlash' (State selection), 'Modda holatini tanlash' (State identification), and 'Loyiha foni rangini o'zgartirish' (Change background color).

2. Moddani qizdiring yoki sovutib oling. Bu modda zarrachalari harakatini qattiqdan suyuqlikka va gaz fazasiga qanday o'zgartirishini o'rganing.

3. «Fazani o'zgarishi» yorlig'iga o'ting.
4. Simulyatsiya vositalaridan foydalanib, moddaning atomlari va molekulalari qizdirilganda, sovutilganda, siqilganda yoki yangi zarralar qo'shilganda qanday harakat qilishini o'rganing.



5. Bajarilgan ishlarni muhokama qiling:

- a) moddalarning uch holati: qattiq, suyuq va gazsimon holatning xususiyatlarini tavsiflang;
- b) harorat yoki bosimning o'zgarishi modda zarralarining harakatini qanday o'zgartirishini tushuntiring;
- c) zarrachalarning uch xil fazadagi harakatlarini solishtiring;
- d) muzlash va erish jarayonini molekulyar darajada tushuntiring.

6-amaliy mashg'ulot: Rutherford tajribasi

(Interaktiv simulyator yordamida dars)

